



## XORAZM VILOYATIDA 2017-2021 YILLAR DAVOMIDA AVTOMOBILNI MAST HOLDA BOSHQARISHDAN SODIR ETILGAN YO'L TRANSPORT HODISALARI, ULARDAN O'LIM VA JAROHATLANISH KO'RSATKICHLARI

**Jumaniyozov K.Y., Olimova M.M.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urgench filiali

Xorazm, Urgench

**Kirish.** Barcha sohalar kabi mamlakatimizda avtomobil transporti va kommunikatsiyalari ham rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar aholining ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan bog'liq muammosidir. Tarmoqning rivojlanishi yo'l-transport hodisalarining sodir bo'lib turishi, uning oqibatida insonlarning hayotdan ko'z yumushi yoki turli darajada tan jarohatlarini olishi, avtomobil yo'llarida va shahar ko'chalarida tirbandliklarning yuzaga kelishi, atrof muhitning ifloslanishi kabi harakat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ayrim muammolarni keltirib chiqaradi

**Tadqiqot maqsadi.** Xorazm viloyatida 2017-2021 yillar davomida avtomobilni mast holda boshqaridan sodir etilgan YTH, ulardan o'lim va jarohatlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Xorazm viloyati yo'l patrul xizmatining 2017-2021 yillar bo'yicha avtohalokatlar to'g'risidagi hisobotlarida qayd etilgan ma'lumotlar doirasida o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni statistik taxlil qilishda ijtimoiy-gigienik va sanitariya statistik usullardan keng foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Sodir etilayotgan yo'l transport hodisalarining sabablaridan biri transport vositasini mast holda boshqarishdir.

Xorazm viloyati bo'yicha 5 yil davomida transport vositalari egalari tomonidan avtoullovlarini mast holda boshqarish holatidagi qoidabuzarlik jami 49 ta holatda kuzatilgan. Bu jami qoidabuzarlikning (1343 ta) - 3,6% ni tashkil qiladi. Ushbu qoida buzarlik 31 nafar insonning umriga zomin bo'lib, jami yo'l transport hodisasidan vafot etganlarning (420 nafar) 7,4%ni tashkil qildi. Mast holda rulga o'tirishlar tufayli sodir bo'lgan YTHdan jami 5 yil davomida 31 nafar inson jarohatlangan va u jami 5 yil YTHlaridan jarohatlanishning (1067 nafar) -2,9%ni tashkil qiladi.

Birgina 2020 yildagi ma'lumotlarga ko'ra yil davomida avtoullovini mast holda boshqarib yo'l transport hodisasi sodir etganlar soni  $13 \pm 0,69\%$  tani tashkil qiladi va ular 2017-2021 yillar davomida viloyat bo'yicha avtoullovini mast holda boshqarib yo'l transport hodisasi sodir etganlar (49 ta) sonining 26,5%ni tashkil qiladi. Ayni paytda bu ko'rsatkich shu yili jami sodir etilgan yo'l transport hodisalarini (245 ta) sonini 5,3%ni tashkil qildi. Ayni paytda bu ko'rsatkich shu yili yo'l transport hodisalaridan jami o'lganlarning (79 nafar) sonini 8,9%ni tashkil qildi. Va nihoyat 2019 yilda avtoullovini mast holda boshqarib yo'l transport hodisasi sodir etish tufayli  $8 \pm 0,51\%$  nafar insonning tanasi turli xilda jarohatlar olgan va 5 yil davomida avtoullovini mast holda boshqarib yo'l transport hodisasidan turli xilda jarohatlar olganlar (31 nafar) sonining 25,8%ni tashkil qiladi. Ayni paytda bu ko'rsatkich shu yili yo'l transport hodisalaridan boshqa sabablar bilan jami jarohatlanganlarning (196 nafar) sonini 4,1%ni tashkil qildi.

**Xulosa.** Eng ko'p avtomobilni mast holda boshqarishdan YTHlari 2020 yilda, eng kam 2018 yilda uchradi. Eng ko'p avtomobilni mast holda boshqarishdan o'lganlar 2017, 2020 va 2021 yillarda uchradi. Eng kam avtomobilni mast holda boshqarishdan o'lganlar 2018 yilda uchradi. Eng ko'p avtomobilni mast holda boshqarishdan jarohatlanganlar 2020 yilda uchradi. Eng kam avtomobilni mast holda boshqarishdan jarohatlanganlar 2018 yilda uchradi.